



O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI  
NAMANGAN VILOYAT XALQ  
TA`LIMI BOSHQARMASI

TO`RAQO`RG`ON TUMAN  
XALQ TA`LIMI MUASSASALARI  
FAOLIYATINI METODIK TA`MINLASH VA  
TASHKIL ETISH BO`LIMI  
24-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI  
BOSHLANG`ICH SINF O`QITUVCHISI

**BOTIROVA YOQUTOYNING**

**“Dars muqaddas” va “O`rgan – o`rgat”  
tavsiyalari asosida**

**4 – SINF ONA TILI FANIDAN**

**“SO`Z TURKUMLARI“**

**mavzusida bir soatlik ochiq**

**DARS  
ISHLANMA**

To`raqo`rg`on – 2012-2013 o`quv yili



**BOTIROVA YOQUTOYXON**

24-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi

Boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Pedagogik faoliyati: 15 yil.

**ONA TIILI FANIDAN**

**SO'Z TURKUMLARI**  
**141 – 144 MASHQLAR**

mavzusidagi bir soatlik

# **DARS**

# **ISHLANMA**

To`ra qo`rg`on – 2012-2013 o`quv yili

Ushbu dars ishlanma Boshlang`ich sinf o`qituvchilari hamda amaliyotchi yosh o`qituvchilarga dars jarayonida foydalanishga mo`ljallangan.

Muallif: Yo. Botirova 24-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi Boshlang`ich sinf o`qituvchisi.

Taqrizchilar:

M. Akbarova - Tuman xalq ta`limi bo`limi Boshlang`ich sinf uslubchisi.

I. Mirzayev 24-umumiy o`rta ta`lim maktabi o`quv ishlari bo`yicha direktor o`rin bosari

Dars ishlanma maktab metodik kengashining 2013 yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi “\_\_\_\_\_” sonli qarori bilan tasdiqlangan.

## **PREZIDENT ISLOM KARIMOV**

### **“BARKAMOL AVLOD O‘ZBEKISTON**

**TARAQQIYOTINING POYDEVORI”** nutqida aynan

boshlang‘ich ta‘limga e‘tibor qaratib shunday egan edi:

Eski ta‘lim tizimining eng yomon qusuri boshlang‘ich

ta‘limga ikkinchi darajali ish deb qaratganimizdadir.

“Vaholangki, bolaning dunyo qarashi, didi, salohiyati

shakllanadigan boshlang‘ich sinflarga eng yetuk eng

tajribali murabbiylar biriktirib qo‘yilishini oddiy

mantiqning o‘zi talab etadi”.



## **O'QITUVCHI HAQIDA MA'LUMOT**



### **BOTIROVA YOQUTXON JALOLIDDINOVNA**

1979- yil 5-oktabrda To'raqo'rg'on tumni Axxi qishloq Fayziobod mahallasi ziyoli oilada tug'ilgan.

To'raqo'rg'on tumni xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limiga qarashli 24-sonli maktabni 1994-yilda tamomlab Kosonsoy pedagogika bilim yurtiga o'qishga kirgan. 1998-yil bilib yurtini "a'lo" baholarga tamomlab shu

yildan buyon 24-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida boshlang'ich sinf o'qituvchisi lavozimda ishlab kelmoqda.

Ma'lumoti o'rta mahsus 15 yil ish faoliyatiga ega. Botirova Yoqutxon o'zining mehnatkashligi, har bir topshiriqqa mas'uliyat bilan yondoshganligi sababli maktab jamoasi orasida o'z hurmatiga ega.

Ish faoliyati moboytida u juda ko'p na'munali dars ishlanmalari uaratgan. Shulardan biri ona tili fanidan 4-sinlar uchun bir soatlik ochiq dars ishlanmasini taqdim etamiz.



## **Mavzu: SO'Z TURKUMLARI 141 – 144 MASHQLAR.**

**Maqsadlar:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarning so'z turkumlari yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash;

**Tarbiyaviy:** bir – birlariga o'zaro mehr – muhabbat tuyg'ularini tarbiyalash;

**Rivojlantiruvchi:** chiroyli va to'g'ri yozish malakasini rivojlantirish.

**Dars turi:** Aralash, noan'anaviy

**Dars uslubi:** Og'zaki, yozma, suhbat, "Aqliy hujum", savol – javob, klaster.

**Jihozlar:** Kartochka va rasmlar, kompyuter.

**Darsning borishi.**

**I. Tashkiliy qism.**

a) Salomlashish, davomatni aniqlash, ob-havo haqida suhbat:

b) O'quvchilarning darsga hozirliklarini nazorat qilish.

**O'qituvchi:**

Bolajonlar, sog' – omonmisiz,  
Bugungi darsga tayyormisiz?

**O'quvchilar:**

Hammamiz sog' – omonmiz,  
Yangi darsga tayyormiz.

**O'qituvchi:**

Har narsadan xabarchi,  
Sinfda kim navbatchi?

**O'quvchi:**

Sinfda men navbatchi,  
Tayyor barcha o'quvchi!

**O'qituvchi:** - Hozir ona tili darsi shundaymi?

**O'quvchilar:** (hamma jo'r bo'lib):

Ona tilim – jon – u dilim,  
Sening bilan biyron tilim.

**O'qituvchi:** Sizlar qanday bolalarsiz?

**Hamma:**

Bizlar – buyuk yurt osmonida.  
Go'zal kamalak,  
Barkamol avlod bo'lmoq.  
Eng ezgu tilak.

**Shiorimiz:**

Imkonning borida ilm izla!

**II. O'tgan darsni so'zlash, mustahkamlash.**

O'qituvchi: - uyga nima vazifa berilgan edi?

O'quvchilar: so'z turkumlariga oid savollar;

Oquvchilar 3 guruhga bo'linib, nomlanadi.

1-guruh “Bilimdonlar”

2-guruh “Zukkolar”




3-guruh “Quvnoqlar”

Har bir guruhga bittadan topshiriq beriladi va  
o'quvchilar klaster uslubidan foydalanib bajaradilar.

1 – guruh “Bilimdonlar” guruhiga – “Ot – so'z  
turkumi”ga oid ma'lumotlar yozing.

2– guruh “Zukkolar” guruhiga – “Sifat – so'z turkumi”ga  
oid ma'lumotlar yozing.

3– guruh “Quvnoqlar” guruhiga – “Son – so'z turkumi”ga  
oid ma'lumotlar yozing.



**1 – rasm.**

**III – YANGI MAVZU BAYONI.**  
**141 – 143 MASHQLAR**  
**141 – MASHQ**

**Mashq sharti o'qiladi.**

**Parvoz.**

O'zbekiston, parvozingni,  
Qiyos etgum uchqur toyga.  
Ona yurtim rivoj topib,  
Qo'limiz ham yetar oyga.  
Yollaringda "Tiko", "Damas",  
"Neksiya"lar qilar poyga.  
Tohir so'rar Jahongirdan,  
Bu tulporlar chiqar qaydan?  
Andijonga yo'ldosh shahar,  
Asaka degan joydan.

**Tursunboy Adashboyev.**

1 – guruh "Bilimdonlar" she'rni ifodali qilib, navbat bilan o'qib chiqadilar.

2 – guruh "Zukkolar" ajratilgan so'zlarni aniqlash sharti beriladi.

3 – guruh "Quvnoqlar" ajartilgan so'zlar nima uchun bosh harf bilan yozilganini topish beriladi.

**"Parvoz"** she'rining muallifi **Tursunboy Adashaliyev** haqida ma'lumot beriladi.

## **142 – mashq sharti o'qiladi.**

Chiziqchalar o'rniga gap mazmuniga mos so'zlar qo'yishda guruh o'quvchilariga "Oltin baliqchalar" yordam berishadi.

## **142 – mashq**

1. Shirin so'z shakardan shirin.
2. Yetti o'lchab, bir kes!
3. Nonni katta tishlasang ham, gapni katta gapirma.
4. Odobli bola – elga manzur.

O'quvchilar yozuv taxtasida va daftarlarida mashqni yozadilar.

## **Dam olish daqiqasi o'tkaziladi.**

Gulzorimda kapalak,  
Guldan – gulag o'tadi.  
Oyi poylab turmasam,  
Gulni yulib ketadi.



2 - rasm.

143 – mashq sharti o'qiladi.  
O'quvchilar she'rni yoddana yozadilar.

### **YAPROQ.**

Nur emishib quyoshdan,  
Yaproqchalar yayraydi.  
Bu quvonchga qo'shilib,  
Shoxda bulbul sayraydi.

- 1 – guruh harakatni bildirgan so'zlarni topadi.
- 2 – guruh tagiga ikki chiziq chizadi.
- 3 – guruh so'roq beradi.

## **IV. YANGI MAVZUNI MUSTAHKAMLASH.**

### **Kartochkalar guruhlarga tarqatiladi.**

Unda ot, sifat, songa oid so'zlar berilgan bo'ladi. Ular ortiqchasini topadilar.

1 – guruh – o'quvchi, bog'bon, ota, duradgor, qorovul, suvchi, oila.

2 – guruh – velosiped, o'yinchoq, gul, kema, rasm, mustahkam.

3 – guruh – qizil, sariq, chiroyli, katta, kichik, yili.

1 – guruhda – Oila so'zi ortiqcha.

2 – guruhda – Mustahkam so'zi ortiqcha.

3 – guruhda – Yili so'zi ortiqcha.

### **O'qituvchi:**

Endi bolalar ortiqcha bo'lgan so'zlarni qo'shib o'qiymiz.

“Mustahkam oila yili”

Prezidentimiz tomonidan 2012-yil

“Mustahkam oila” 2013-yil esa

“Obod turmush” yili deb nomlandi.





**3 – rasm.**

**Test topshiriqlari beriladi:**

1 – guruhga – Shahs va narsaning belgisini bildirgan so'zlar nima deyiladi?

- A) Ot
- B) Sifat
- C) Son
- D) Fe'l

2 – guruhga – O't – so'z turkumi qanday so'roqlarga javob bo'ladi?

- A) Qanday? Qanaqa?
- B) Kim? Nima?
- C) Nima qildi? Nima qiladi?
- D) Qancha? Nechta?



3 – guruhga – O'zbek tilida nechta tovush bor?

A) 29 ta

B) 31 ta

C) 30 ta

D) 32 ta

## **V. O'quvchilarni baholash.**

Darsda faol qatnashgan guruh a'zolarining ballari hissoqlab chiqiladi.

Eng ko'p ball to'plagan guruh bugungi dars g'oliblari hissoqlanadi.

## **VI. Darsni yakunlash va uyga vazifa.**

**Uyga vazifa. 144 – mashq.**



## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. “Boshlang’ich ta’lim” 4 – son 2012 – yil.
2. “Boshlang’ich ta’lim” 2 – son 2011 – yil.
3. “Ona tili” 4 –sinf darsligi.



